

FUQAROLIK ISHLARI BO'YICHA TAFTISH INSTANSIYASI VA UNDA ADVOKAT ISHTIROKI

*Toshpulatov Abdumumin Komil O'g'li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
advokatlik faoliyati magistratura talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik sudlarida taftish instansiyasi, uning rivojlanish bosqichi, taftish instansiyasida ish yuritish tartibi, yuqori instansiya sudlarida taftish instansiyasining roli va ahamiyati keltirilgan. Bundan tashqari advokatning taftish instansiyasida ishtirok etishining o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: advokat, advokatlik faoliyati, vakil, instansiya, qayta kassatsiya, nazorat, taftish, advokatning majburiy ishtiroki, konstitutsiyaviy norma, advokat gonorari, xorijiy tajriba.

Fuqarolik sudlarida ishlar bir qancha instansiyalarda amalga oshirilishi mumkin. Bunday instansiyalarni ko'rib chiqishdan oldin instansiya so'ziga ta'rif bersak. **Instansiya** (lotincha instantia — bevosita yaqinlik) — bir-biriga itoat qiladigan tashkilotlar, davlat boshqarmalari, sud organlari, jamoat va b. tashkilotlar tizimidagi bosqich degan ma'noni anglatadi. Demak sud organlaridagi instansiya bu ishlarni qaysi sud bosqichida ko'rishni anglatadi. Fuqarolik sudlarida ishlar birinchi va yuqori instansiya shaklida ko'rib chiqiladi. Yuqori instansiya sudlari bu appellatsiya, kassatsiya va taftish instansiyasi sudlaridir. Agarda sudning chiqargan hal qiluv qaroridan norozi bo'lган taraf yoki bevosita manfaatdor shaxs sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori va sud hujjatlari ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berishi mumkin. Apellyatsiya shikoyati (protesti) sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida berilishi mumkin. Sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlari ustidan kassatsiya tartibida shikoyat beriladi. Apellyatsiya tartibida ko'rilmaydi. Bu ish to'g'ridan to'g'ri taftish instansiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

Sud hujjatlari qayta ko'rish instansiyalaridan biri bo'lган taftish instansiyasi yangi bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqich 2024-yil amaliyatga joriy etildi. Bundan oldin sud hujjatlari nazorat tartibida, undan keyin esa qayta kassatsiya tartibida ko'rib chiqilar edi. Hozir kelib ushbu instansiyalar tugatilib taftish instansiyasi joriy etildi.

Taftish tartibida ish yuritish-bu ilgari qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini qayta ko'rish orqali qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirishdan iboratdir. Ushbu bosqichda sud hujjatlari ustidan taftish tartibida shikoyat yoki protest quyidagi subyektlar tomonidan kiritilishi mumkin: taraflar, huquq va manfaatlari sud tomonidan

ko'rilgan shaxslar, prokuror, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, bundan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'limgan nizolar mustasno va boshqa vakolatli shaxslar tomonidan berilishi mumkin.

"Taftish tartibidagi shikoyatni quyidagi sudlar ko'rishi mumkin:

1) Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati — tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari tomonidan birinchi instansiya bo'yicha qabul qilingan va apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud hujjatlari ustidan berilgan;

2) O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi — hududiy harbiy sudlar tomonidan birinchi instansiya bo'yicha qabul qilingan va apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud hujjatlari ustidan berilgan;

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati:

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida apellyatsiya yoki cassatsiya va taftish tartibida ko'rilgan tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, hududiy harbiy sudlar tomonidan birinchi instansiya bo'yicha qabul qilingan sud hujjatlari ustidan berilgan;"¹

Taftish shikoyati ishni ko'ragidigan sud nomiga yoziladi ammo, ish birinchi va yuqori instansiya sudi sifatida ko'rgan sud orqali yuboriladi. Taftish tartibida shikoyat berish muddati 1 yil hisoblanadi. Taftish tartibidagi shikoyat FPKda ko'rsatilgan qoidalar bo'yicha yoziladi va hujjatlar ilova qilinadi. Agarda shikoyat kodeksda ko'rsatilgan talablarga javob bermasa taftish instansiysi tomonidan qaytarilishi yoki rad etilishi mumkin. Bunga bir qancha asoslar bo'lishi mumkin.

Shikoyat taftish instansiyasiga yuborilgan so'ng ushbu sudning vakolatli sudyasi ishni o'rganib chiqib ishni ko'rish uchun ish yuritishga qabul qilish yoki rad etish to'g'risida ajrim chiqariladi. Ajrim chiqarilgandan so'ng ish 1 oylik muddatda sud tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Agarda ish Oliy sud Rayosati tomonidan ko'rolganda 2 oydan oshmagan muddatda hal qilinishi lozim.

"Taftish tartibida ish FPKning 397-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga asosan, taftish tartibida ish ko'rishda belgilangan xususiyatlarni inobatga olgan holda ko'rildi.

Ishni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida taftish tartibida ko'rishda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinnbosarlari ishtirok etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, <https://lex.uz/docs/-3517337#-6716142>

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarori yakuniy hisoblanadi va uning ustidan shikoyat qilinmaydi (protest keltirilmaydi).

Taftish instansiyasi sudi ajrimining, qarorining ko‘chirma nusxasi ishni ko‘rishda ishtirok etgan shaxslarga FPKning 270-moddasida nazarda tutilgan tartibda yuboriladi.”²

Taftish instansiyasi ishni ko‘rish yakuni bo‘yicha quyidagi vakolatga ega hisoblanadi.

1) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni o‘zgarishsiz qoldirishga;

2) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni to‘liq yoxud qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror qabul qilishga;

3) hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni to‘liq yoki qisman o‘zgartirishga;

4) FPKning 372²-moddasi bиринчи qismining 4-bandida va 372⁴-moddasi ikkinchi qismining 4-bandida nazarda tutilgan asoslар mavjud bo‘lgan taqdirda, hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni bekor qilishga va ishni yangidan ko‘rish uchun apellyatsiya yoki cassatsiya instansiyasi sudiga yuborishga;

5) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni to‘liq yoki qisman bekor qilishga va ushbu Kodeksda ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra arizani ko‘rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni to‘liq yoki qisman tugatishga;

6) ayrim sud hujjatlarini bekor qilishga va ish bo‘yicha ilgari qabul qilingan sud hujjatlaridan birini o‘z kuchida qoldirishga haqli.

Taftish instansiyasi sudining ajrimida, qarorida bayon qilingan ko‘rsatmalar mazkur ishni yangidan ko‘rayotgan sud uchun majburiydir.

“Taftish instansiyasi sudi u yoki bu dalilning ishonchliligi yoki ishonchszligi to‘g‘risidagi, ayrim bir dalillarning boshqalaridan ustunligi haqidagi, ish yangidan ko‘rilgan taqdirda qanday qaror chiqarilishi kerakligi to‘g‘risidagi masalalarni oldindan hal qilib qo‘yishga haqli emas.”³

Advokatning fuqarolarga va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko‘rsatish huquqi konstitusiyamizda konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlangan. Bu haqda 29-moddaning 1-qismida keltirib o‘tilgan⁴. Bundan tashqari Advokatura to‘g‘risidagi qonunning 1-moddasida ham bu haqida keltirib o‘tilgan⁵. Advokat fuqarolik sudlarida vakil sifatida ishtirok etishi mumkin. Advokatning fuqarolik ishlarida vakillikni amalga oshirishi fuqarolik protsessual kodeksining vakillikka bag‘ishlangan 7-bobida ko‘rsatib o‘tilgan. Advokat sudda vakillikni amalga oshirishi “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunda ham o‘z aksini topgan. Advokat taftish instansiyasida vakillikni

² O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, <https://lex.uz/docs/-3517337#-6716142>

³ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, <https://lex.uz/docs/-3517337#-6716142>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, <https://lex.uz/docs/-6445145#-6446155>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi qonun, <https://lex.uz/acts/-54503>

FPK va boshqa normativ- huquqiy hujjatlar talablariga asosan va ular bergen vakolatlidan foydalangan holda amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, advokatning yuqori instansiya sudlari ishtirok etishi juda foydali hisoblanadi. Buni biz xalqaro tajribani kuzatib ham aytishimiz mumkin. Xususan, Germaniya mamlakatida advokatning yuqori instansiya sudlarida ishtirok etishi majburiy hisoblanadi. Buning foydalari sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin;

1. Sud jarayonining sifatini oshiradi

- Malakali advokat ishtiroki huquqiy dalillarni puxta yoritish, protsessual xatolarning oldini olish va ishni to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiladi.
- Bu sudyalarning yukini kamaytiradi, chunki ish materiallari huquqiy jihatdan tartiblangan bo‘ladi.

2. Apellyatsiya instansiyasining vazifasiga mos keladi

- Apellyatsiya bosqichi O‘zbekistonda ham odatda faktlarni emas, **huquqiy baholashni** qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan.
- Bunda professional yondashuv talab etiladi, bu esa faqat tajribali advokatlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

3. Adolatli qarorlar chiqarilishiga ko‘maklashadi

- Sudlar, qonunlarga tayangan holda, asosli va aniq qarorlar qabul qiladilar.
- Advokatlar, huquqiy nuqtai nazarlarni chuqur tahlil qilib, sudga taqdim etadilar, bu esa xatoliklar yuzaga kelish ehtimolini kamaytiradi.

4. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshiradi

- Advokat ishtiroki fuqarolarga o‘z huquqlarini qanday himoya qilishni, qonuniy imkoniyatlardan qanday foydalanishni o‘rgatadi.
- Bu umumiy huquqiy ongni yuksaltiradi.

5. Sud tizimi samaradorligini oshiradi

- Ishlar tezroq, aniq va tartibli yuritiladi.
- Sudlar asosiy vazifasiga – nizoni hal qilish va adolatni tiklashga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Agarda yuqoridagi tajriba bizda ham joriy etilsa maqsadga muvofiq bo’lardi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.:O‘zbekiston, 2023.– 40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, 2018,
<https://lex.uz/docs/-3517337>

3. O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni, Toshkent shahri, 1996-yil 27-dekabr, 349-I-son. <https://lex.uz/acts/-54503>
4. O‘zbekiston Respublikasi qonuni, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”, 1998-yil 25-dekabr, 721-I-son.
5. Fuqarolik protsessual huquq o‘quv qo’llanma, M.M. Mamasiddiqov, Z.N. Esanova, D.Y. Habibullayev Toshkent «ILM ZIYO» 2012
6. Fuqarolik ishlari bo`yicha sudlarda yuqori instansiya da ish yuritishda advokat ishtirokining ahamiyati, Maqola Zarnigor Bebutova
7. Matkarimov Q.Q O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, o‘quv qo’llanma. Toshkent TDYU nashriyoti-2023.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz
9. Doniyorbek, Davronov. "The Procedure and Grounds for Applying the Measure of Compulsory Attendance." American Journal of Social and Humanitarian Research 3.7 (2022): 59–66.
Esenbekova P., F. Ibratova, and D. Davronov. "Legal issues of electronic evidence in the economic process". Norwegian Journal of Development of the International Science 76-2 (2021): 20–24.
- Faxriddinovna, Bebutova Zarnigor. "There are cases where a lawyer should be involved in civil proceedings: Legal analysis of foreign experience". Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.8 (2022): 555–558.
10. Fakhriddinovna B.Z. The impact of family decisions on child psychology: legal and artistic interpretation // Interdiscipline innovation and scientific research conference. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 15–18.
11. Бебутова З. Advokatning fuqarolik va iqtisodiy protsessdagi maqomi: huquqlar va majburiyatlar // Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 6/S. – С. 163–166.
12. Сулаймонова Н. Мехнатга оид низоли ишларни судда кўришнинг процессал хусусиятлари // Международная конференция академических наук. – 2022. – Т. 1. – №. 30. – С. 17–20.
13. Advokatura institutining tashkiliy-huquqiy asoslari, o‘quv qo’llanma Qodiraliyev Saddam Bahtiyorjon o‘g’li, T.: TDYU nashriyoti 2023.
14. Advokatura. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Egamberdiev A.U., Ahmedov R.T., Mirzaev Sh.M., Fazilov F., Nikonov I., Sayfieva G. T.: TDYuU nashriyoti, 2016. - 250 bet.
15. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2019. – 195 bet
16. Advokatura darslik // Mas’ul muharrir y.f.n., prof. D. Habibullayev - T.: TDYU, 2021. - 108 bet.
17. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati. Rustambayev M.H., Tuxtasheva U.A., 2012
18. Advokatura va advokatlik faoliyatining huquqiy masalalari. Tulaganova G., Qodiraliyev S. 2022
19. Fuqarolik protsessida advokat ishtiroki. Pirmatov O. 2020